



MAMLAKATGA INVESTITSIYALAR OQIMINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA IXTISOSLASHGAN HUDUDLARNI JALB QILUVCHANLIGINI OSHIRISH

PhD, dots. **Kamilov Dilshod To'ychi o'g'li**
Sambhram universiteti
ORCID: 0009-0009-3453-9489
Shayzaqova Shaxnoza Hakimbek qizi
Sambhram universiteti
ORCID: 0009-0001-7867-1037

Annotatsiya. Bugungi kunda investitsiyalar har bitta mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda iqtisodiyotning eng kerakli bo'g'ini hisoblanadi. Mamlakatda milliy va xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni keskin sur'atlar bilan o'sish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi turmush tarzini yaxshilash, daromadlarini oshirish va aholini bandlik bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada investitsiyalarning mohiyati, ularni mamlakatga jalb qilish omillari, shuningdek hududlarda investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan fikr va mulohazalar berilgan. Shu o'rinda bugungi globallashuv davrida har bitta dunyo mamlakatlari o'zining iqtisodiy holatini oshirish, yangi ishlab chiqarish hududlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlarini yaratish, mamlakatning tabiiy qazilma boyliklaridan unumli foydalanish va ularni qayta ishlashda investitsiyal muhim ahamiyat kasb etadi. Har bitta davlatning iqtisodiy rivojlanishining eng katta omili bu-investitsiyadir.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiyalari, ixtisoslashgan hudud, investitsiya muhiti, investitsiya jozibadorligi, imtiyozlar, tabiiy boyliklar, ish o'rni yaratish, ishlab chiqarish hududlarini shakllantirish.

ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ РЕГИОНОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПОТОКА ИНВЕСТИЦИЙ В СТРАНУ

PhD, доцент **Камилова Дилшод Тойчи угли**
Университет Самбрам
Шайзакова Шахнозы Хакимбек кизи
Университет Самбрам

Аннотация. Сегодня инвестиции являются самой необходимой частью экономики в развитии экономики каждой страны. Национальные и иностранные инвестиции в стране служат быстрому росту экономики, обеспечению макроэкономической стабильности, снижению уровня безработицы, улучшению образа жизни населения, увеличению его доходов, обеспечению занятости населения. В статье представлены сущность инвестиций, факторы, привлекающие их в страну, а также мнения и комментарии, направленные на повышение привлекательности инвестиций в регионы. В то же время в современный период глобализации каждая страна мира приобретает важное инвестиционное значение в улучшении своего экономического состояния, формировании новых производственных территорий, создании рабочих мест, эффективном использовании природных минеральных ресурсов страны и их переработке. Важнейшим фактором экономического развития любой страны являются инвестиции.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, специализированная сфера, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, льготы, природные ресурсы, создание рабочих мест, формирование производственных территорий.

INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF SPECIALIZED REGIONS TO DEVELOP THE FLOW OF INVESTMENTS TO THE COUNTRY

PhD, assoc. prof. **Kamilov Dilshod Toychi ugli**
Sambhram University
Shayzakova Shakhnoza Khakimbek kizi
Sambhram University

Abstract. Today, investments are the most necessary part of the economy in the development of the economy of each country. National and foreign investments in the country serve to rapidly grow the economy, ensure macroeconomic stability, reduce the level of unemployment, improve the lifestyle of the population, increase their income, and provide employment to the population. The article presents the essence of investments, the factors that attract them to the country, as well as opinions and comments aimed at increasing the attractiveness of investments in the regions. At the same time, in today's globalization period, every country of the world acquires important investment importance in improving its economic status, forming new production areas, creating job vacancies, effective use of natural mineral resources of the country and their processing. The biggest factor of economic development of any country is investment.

Key words: investment, foreign investments, specialized area, investment environment, investment attractiveness, benefits, natural resources, job creation, formation of production areas.

Kirish.

Dunyoda yashash tarzining jadal rivojlanib borishi va globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi bugungi kunda davlatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya jozibadorligini oshirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida "iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatchilik sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi" deb takidlab o'tiladi (Mirziyoyev, 2020). Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilish bu shu mamlakatning iqtisodiyotining gullab yashnashiga asosiy omil bo'ladi. Chunki investitsiya orqali korxonalar va ishlab chiqarish sanoati biznesini yuritish uchun kapital jamg'arish natijada biznesni kengaytirish va iqtisodiyotning o'sishiga turtki bo'ladi. Mamlakatga "O'zbekiston bilan ishlash istagini bildirgan xorijiy investorlar bilan mustahkam aloqa o'rnatib, loyihaning boshidan oxirigacha ularga yordam berish, oddiy qilib aytganda, ularni qo'lidan yetaklab "natijani ta'minlash kerak", - dedi Shavkat Mirziyoyev (2020). Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkining va davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, yangi raqobatchilik ishlab chiqarishlarni va kichik korxonalarni rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlar roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to'g'ri taqsimlash muommasidir. «O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish" vazifasi alohida belgilab berildi (Mirziyoyev, 2022).

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25- dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunda chet el investitsiyalariga quyidagicha ta'rif beriladi "chet el investitsiyalari – chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar" (Qonun, 2019).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni quyidagicha izohlab chiqamiz. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari-chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalardir (Qonun, 2019).

Vaxobov (2010) esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta'kidlaydi.

Azizov (2021) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo'jalik faoliyati ustidan qisman yoki to'liq nazoratni ta'minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta'kidlaydi.

Bababekova, Tursunov (2019) tadqiqotlarida faol investitsion jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investitsiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslanadi.

R.H.Bozorov ilmiy izlanishlarida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtirokiga bevosita bog'liqligi tadqiq qilingan[9].

Mihayela, Vaqar, Helian (2018) tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbir etish imkoniyatlari mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, statistik ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjudligini inobatga olib bir qancha tahliliy yondashuvlar o'tkazildi;

- Mamlakatga investitsiya kiritish orqali xususiy va qo'shma korxonalarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etishda investorlar texnikasini yaqindan o'rganish;
- yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarini elektro mexanizmini tashkil etish;
- erkin iqtisodiy va ixtisoslashgan hududlar tashkil etish;

- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Chet eldan investorlarni jalb qilishda turli usullar va texnikalarning qo'llanilishi o'z o'rnida hosilini bermoqda. Shiddatli va jadal iqtisodiy o'sish, iqtisodiy yangiliklarni amalda qo'llash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda ishonchli va aniq bayon qilingan investitsiya siyosati yuritish va ulardan to'g'ri foydalana olish eng muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimiz o'zining tabiiy boyliklarga ega ekanligi, va ularni qazib olish, qayta ishlov berish borasida zavod, fabrika va maxsus joylarni tashkil etish, shuningdek amalda ish olib borayotgan korxonalarining yangilanishi va zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanganligi va o'z o'rnida chet ellik investorlarni o'ziga jalb qilmoqda va ularning mamlakatga kirib biznesi rivojlantirishga yo'l ochib bermoqda.

So'nggi yillarda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va iqtisodiyotga yanada ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, qonunchilikda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi "Soliq kodeksi", "Investitsiya va investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonun, "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi hamda "investitsiya krediti", "investitsiya subsidiyasi" va "investitsion viza" kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Qonunchilikdagi o'zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston 2019-yilda ilk bora Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko'ra, 2020-yilda jahonda 43-o'rinni, Osiyo mintaqasida 7-o'rinni qayd etdi. 2017—2022-yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'ringa 117-o'ringa ko'tarildi. Mamlakatga kiritilayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich 1,5 barobar ortib, 3,3 milliard dollarga yetdi.

1-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd.so'm

Hududlar kesimida	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z. R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	84311,6	21153,4	82419,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1829,2	1221,4	4266,7
Andijon	7501,3	555,5	3202,8
Buxoro	12496,0	1826,6	5805,1
Jizzax	4382,0	325,8	5562,3
Qashqadaryo	3959,6	1804,0	6043,0
Navoiy	6296,8	2070,1	7946,7
Namangan	1722,5	783,8	7856,9
Samarqand	6894,0	1008,1	3616,9
Surxondaryo	8083,5	513,0	2520,8
Sirdaryo	9722,7	101,1	2700,8
Toshkent	6080,4	1757,0	17432,3
Farg'ona	5229,7	401,5	3822,8
Xorazm	1399,7	538,1	3403,6
Toshkent sh	8714,2	8244,7	8239,1

Agentlik tahliliga ko'ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga jami 352,1 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan. Shundan 21,2 trillion so'mi O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Mazkur kreditlarni

o'zlashtirishning eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (8,2 trillion so'm) qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich esa Jizzax viloyatida -328,5 milliard so'm.

O'zbekiston kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ulushi Xitoy (25,6 foiz), Rossiya (13,4 foiz), Saudiya Arabistoni (7,9 foiz) va Turkiya (6,4 foiz) mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Statistik raqamlarga qaraganda, byndan 5 yil ilgari, ya'ni 2019-yilda asosiy kapitalga 189,9 trillion so'mlik investitsiyalatr o'zlashtirilgan. Shundan O'zbekiston kafolati ostida jalb qilingan xorijiy kreditlar 27,9 trillion so'mni tashkil etadi.

2020-yilda 202 trillion so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 22,5 trillion so'mi (2019-yildagidan 11,1 foiz kam) respublika kafolati ostidgi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan.

Agentlik ma'lumotlarida 2021-yilda mamlakatda asosiy kapitalga 245 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan. Shundan 17,3 trillion so'mi O'zbekiston hukumati kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. 2022-yilda asosiy kapitalga jami 269,9 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Investitsiya bilan turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi (Qonun, 2019).

Bgungi kunda mamlakatimizda 21 ta erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo'lib ulardan 19 tasi sanoat va ishlab chiqarish, 1 tasi turizm va yana b1 tasi esa qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan.

Xulosa va takliflar.

Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish bo'yicha quyidagicha taklif va tavsiyalar berish o'rinli deb hisoblaymiz:

– hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilishning "drayver" sohalari bo'yicha puxta iqtisodiy asoslangan investitsion loyihalarni ishlab chiqishni tashkil etish, ularni monitoring qilish, investorlarga huquqiy ko'mak berish ishlarini amalga oshirish maqsadida viloyat markazlarida malakali mutaxassislarni jalb etgan holda "Loyihalar fabrikasi"ni tashkil etish lozim;

– hududlardagi sobiq sanoat zonolari faoliyatini qaytadan hatlovdan o'tkazish va aniqlangan bo'sh yer maydonlari va bo'sh turgan ishlab chiqarish binolarini investitsion majburiyatlar asosida xorijiy investorlarga berish;

– O'zbekistonning xorijdagi elchixonolari ko'magida hududlardagi istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirish ishlariga mamlakatimizda biznes yuritishga qiziqishi yuqori bo'lgan xorijda yashayotgan va kelib chiqishi etnik o'zbek bo'lgan salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz negizida tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini yangicha tashkil etish, ulardagi hissabay ishtirok etish, ya'ni aksiyalar ulushiga asosan tomonlarning qaror qabul qilishida ishtirok etish, eng asosiysi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga investitsiya loyihalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi. Jumladan: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali tizimini yaratish uchun birinchidan, rivojlanish strategiyani ishlab chiqish, ikkinchidan, "yo'l xaritalari" yaratish, uchinchidan, o'zoq yillarga mo'ljallangan konsepsiya ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Investitsiyalarni kiritish qarorini qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'plami investorning

qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab farqlanadi, lekin barcha turdagi va guruhdagi investorlarni jalb qilishda hududning investitsion muhitini tavsiflovchi va unga xizmat qiluvchi indikatorlar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan asoslandi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini takomillashtirish quyidagi vazifalarni amaliy ijrosini ta'minlash o'rinli:

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid milliy qonunchilikni xalqaro va mintaqaviy standartlarga uyg'unlashtirish, xalqaro tajribada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish;

- innovatsion loyihalarni ishlab chiqayotgan va uni joriy etayotgan yuqori texnologik tarmoqlarga va korxonalariga qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar berish; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xususan ularning ishlab chiqarish zanjiriga kirish orqali mahalliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha turlicha yondoshuvlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish imkonini berishi zarur.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Azizov A.S. (2021) *To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.*

Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. (2019) *Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: "Iqtisod-Moliya", 40 b*

Bozorov R.H. (2018) *O'zbekistonning global indekslarda ishtirokini keng ta'minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr.*

Mihaela Peres, Waqar Ameer & Helian Xu (2018) *The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomika Istraživanja, 31:1, 626- 644, DOI: 10.1080/1331677X.2018.1438906 <https://doi.org/10.1080/1331677X.2018.1438906>*

Mirziyoyev Sh.M. (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.prezident.uz*

Mirziyoyev Sh.M. (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2022 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230192> UZBEKISTAN | www.caajsr.uz strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llabquvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida» gi Farmoni. 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son.*

Qonun (2019) *O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-598-son Qonuni, 3-modda.*

Vaxobov A.B. (2010) *Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, – T. – O'quv qo'llanma.*